

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1-iyun holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1- iyun holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish surʼati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil yanvar-may oyida)







Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,2 foizga oshdi**




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonasi va
tashkilotlarning
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan 7,1 foizga
oshdi*



■ Kichik korxonalar ■ Mikrofirmalar ■ Kichik tadbirkorlik subyektlari




2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 10,3 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 %ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 107,0 %ga (jami sanoatdagi ulushi 95,9 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 109,0 %ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 133,8 %ga (jami sanoatdagi ulushi 0,8 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 97,6 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,6** foizga oshdi



Kichik tadbirdorlik subyektlari soni



18,5
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



24,4
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar



25,5
foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan
22,3 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




7,0
foizga oshdi



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

10



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

(2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

11

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

1046



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

56



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

74



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

(2022-yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



176 yashash
bo'yicha xizmatlar




2 468
Oziq-ovqat
mahsulotlari va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar

2022-yil 1- iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,6 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 114,1 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,3 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 122,2 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,7 %) o'sishidir.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2022-yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

13



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022-yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022-yilning 1-iyun holatiga ko'ra 6,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 788 taga yoki 113,8 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 6,1 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 637 taga yoki 111,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 548 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 43 taga yoki 92,7 %ga kamaygan.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 25,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,1 mingtaga yoki 119,2 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 24,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,7 mingtaga yoki 117,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2361 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 62 taga yoki 102,7 %ga ko'payganni ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra 566 tani tashkil etib, ulardan 556 tasi yoki 101,8 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 74 taga yoki 115,4 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning yanvar-may oylarida viloyatimizda 22 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil yanvar-may oylarida, birlikda)



**Farg'ona viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**


(2022-yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

18

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Belarusiya Respublikasi	5	2	3
Ozarbayjon Respublikasi	7	3	4
Qirg'iziston Respublikasi	21	12	9
Qozog'iston Respublikasi	6	4	2
Rossiya Federatsiyasi	78	47	31
Tojikiston Respublikasi	8	4	4
Ukraina Respublikasi	3	2	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni
(2022-yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

19




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Jami	228	341	444	493	556
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4	22	29	29	29
Sanoat	161	200	251	275	294
Qurilish	5	7	12	19	29
Savdo	26	58	79	95	115
Tashish va saqlash	4	7	12	14	14
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10	15	16	14	14
Axborot va aloqa	2	4	4	4	5
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	7	10	9	10
Boshqa turlar	10	21	31	34	46

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

20




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

21

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Farg'ona viloyati	556	357	199
Oltiariq tumani	24	17	7
Qo'shtepa tumani	9	8	1
Bag'dod tumani	16	12	4
Buvayda tumani	11	8	3
Beshariq tumani	12	5	7
Quva tumani	22	13	9
Uchko'prik tumani	22	14	8
Rishton tumani	11	8	3
So'x tumani	7	6	1
Toshloq tumani	19	12	7
O'zbekiston tumani	28	24	4
Farg'ona tumani	28	18	10
Dang'ara tumani	18	10	8
Furqat tumani	10	8	2
Yozyovon tumani	6	1	5
Farg'ona shahar	175	103	72
Qo'qon shahar	75	40	35
Quvasoy shahar	34	27	7
Marg'ilon shahar	29	23	6

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)


22



2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (16,5 %), Qo'qon shahar (11,7 %), Marg'ilon shahar (9,0 %), Uchko'prik tumani (5,0 %), Dang'ara tumani (5,0 %), Oltiariq tumani (4,9 %), Quva tumani (4,8 %), O'zbekiston tumani (4,8 %), Buvayda tumani (4,8 %), Toshloq tumani (4,5 %), Farg'ona tumani (4,1 %), Bag'dod tumani (3,8 %), Rishton tumani (3,7 %), Beshariq tumani (3,6 %), Quvasoy shahar (3,4 %), Qo'shtepa tumani (3,2 %), Furqat tumani (2,6 %), So'x tumani (2,4 %), Yozyovon tumani (2,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2022-yil yanvar-may oylarida, birlikda)


2022- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (15,3 %), Qo'qon shahar (9,3 %), Toshloq tumani (6,0 %), Marg'ilon shahar (5,8 %), Dang'ara tumani (5,7 %), Oltiariq tumani (5,2 %), Buvayda tumani (5,0 %), O'zbekiston tumani (4,8 %), Quva tumani (4,6 %), Beshariq tumani (4,6 %), Rishton tumani (4,6 %), Farg'ona tumani (4,4 %), Bag'dod tumani (4,1 %), Qo'shtepa tumani (4,0 %), Uchko'prik tumani (3,8 %), Quvasoy shahar (3,6 %), Yozyovon tumani (3,2 %), Furqat tumani (3,1 %), So'x tumani (2,9 %), hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2022-yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

23



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022-yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy
korxonalarga taqsimlanishi**

(2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)

24



2017-2021-yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish etib belgilangan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnomaga tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The header includes the national emblem and the text "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The main section features a large blue banner with the title "O'ZBEKISTON (2021- yill yanvi)." Below this are several data cards with icons and percentages. To the right, there's a sidebar with links to "INTERAKTIV XIZMATLAR", "MABBIOT XIZMATI", "MUROJAATLAR", and "IMF E-GODS". The bottom of the page has sections for "SO'NGGI YANGILIKLAR" and "Jizzax viloyatida tiklanish va tarraqiyot".

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'onha viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:73 244-65-76**